

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O'RGATISH USULLARI

Shodmonova Nozima Sayidalimovna

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Gmail: nozimashodmonova607@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Nematullayevna**

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish usullari hamda uning bolalar hayotidagi o'rni to'g'risida yozilgan bo'lib, hozirda ingliz tili dunyo tan olgan tillar qatoridan joy olayotgani bois, uni bog'cha yoshidan boshlash kerak. Shuningdek bog'cha yoshidagi bolalarning chet tili bilish darajasini oshirish uchun bir nechta foydali hamda samarali metodlar ham berib o'tilgan. Quyidagi metodlar orqali nafaqat ota-onalar balki o'qituvchilar ham bolalarning bilim olishlarini ma'lum bir darajada osonlashtirish olishadi. Maqolada ta'kidlab otilgan bir necha chet mamlakat olimlari ham o'zlarining qarashlari hamda tajribalaridan kelib chiqib turli xil chet tillarini o'rganishda foyda beradigan ma'lumot va metodlar ham keltirib o'tirgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich muloqot, chet tilida so'zlashish nutqi, nazariy va amaliy metodlar, kundalik muloqot, aqliy e'tibor, muloqot ko'nikmasi.

KIRISH

Bugungi jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan davrda chet tili (ingliz tili) ning har bir mutaxassis uchun qay darajada muhimligi barchamizga ma'lum. Hozirda qay bir yo'nalish bo'yicha faoliyat yuritishdan qat'i nazar har bir shaxsga chet tilida muloqot qila olish talabi qo'yilmoqda. Jumladan, yurtboshimizning "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risida 2022-yilgi 34-sonli qarori asosida nafaqat oliy hamda o'rta maxsus ta'lim dargohlari balki maktabgacha ta'lim muassasalarida ham chet tilini o'rgatish ta'limning majburiy tarkibiga aylangan. Aynan shu kabi ma'suliyatni his etgan holda hozirgi kunda ota-onalar farzandlari uchun erta yoshdan chet tillarini o'rganishi maqsadida barcha sharoitlarni yaratib berishga harakat qilishmoqda. Shu bois ularni maktabgacha ta'lim muassasalariga topshirishdan avval, qay darajada chet tilining o'rnatilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishidan boshlashmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadlari:
-bolalarda boshlang'ich muloqot qobiliyatini shakllantirish

- ularning chet tilini yanada o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish
- boshqa mamlakatlarning madaniyat, odatlari bilan tanishtirish
- har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash

Maktabgacha yoshdagi bolalarda yangiliklarni o'zlashtirish hamda qabul qilish, ularga bo'lgan qiziqishning ulkan darajada ekanligi bois osonroq kechadi. Ya'ni, ular uchun yangi tilni o'rganish qiyinchilik emas, balki katta ishtiyoq tug'diradi. Chunki til o'rganishning optimal davri 4 yoshdan 7-8 yoshga cha deb hisoblanadi. F.N. Protosovanning ta'kidlashicha, bu yoshda bolalarda allaqachon o'z ona tili yetarlicha yaxshi shakllangan va yangi tilni o'rganish ongli ravishda kechadi. 9 yoshdan keyin esa bolalar nutq mexanizmining moslashuvchanligini yo'qotadi. 7 yoshgacha esa bolalarda chet tilida so'zlashish nutqi shaklida o'zlashtiriladi.

Bolalarga chet tilining erta yoshdan o'rgatishning keyingi eng asosiy sababi bu yoshdagi bolalarning xotira va nutq jihatdan ustunligidir. Bu bosqichda ular kattalarga qaraganda ko'p narsani eslab qolishga qodir bo'lishadi. Olimlar aynan shu farqni yuzaga chiqarish maqsadida tadqiqot o'tkazishgan va bu tadqiqotda 77 ta 5 yoshli bolalar hamda 71 ta kollej talabalari qamrab olingan. Ularning xotiralari tekshirilganda yosh bolalar 31% hayvonlarning aynan qaysi vaqtda ko'rsatilganini ayta olishgan bo'lsa, kattalar faqatgina 7% ini eslay olishgan xolos. Shuningdek, bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa, uning so'z boyligi hamda talaffuzda bo'lgan ehtiyoji shuncha katta bo'ladi. Ya'ni bu bosqichda til o'rganish ular uchun qulay vaqtdir.

Dunyoga kelgan yangi chaqaloqning ruhini "top-toza" paxtaga o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning top-toza paxta tarzida ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyoridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi, bola hayotdan olgan tajribaga, o'zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir", – deb ta'kidlaydi. Bolalarga chet tilini o'rgatish qiziqarli va samarali bo'lishi uchun turli usullar va o'yinlarda foydalanish ham mumkin. Quyida chet tilini o'rgatishning samarali yo'llari keltirilgan: Birinchi navbatda darslarni nazariy emas, balki amaliy, qiziqarli metodlar boyitish e'tiborimiz doirasida bo'lishi lozim.

Yangi so'zlarni osonroq eslab qolishlariga yordam berish uchun "Memory" , "Simon says" kabi o'yinlardan foydalanishimiz mumkin . O'yinlar bolalarni ruhlantiradi va ulardagi til o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Shu bilan bir qatorda, ularning talaffuzini yaxshilash uchun chet tilidagi oddiy bolalar uchun multfilmlar, so'zlarni ritmik eslab qolishlari uchun esa qo'shiqlarni qo'llash samaraliroqdir. Misol uchun, "Dora and her friends" bolalarga til o'rganishda ko'mak

beruvchi maxsus mutltfilm, ABCD, sanash qo'shiqlari ularni eslab qolishda bolalarga yordam beradi.

Hamda ma'lumot o'rnida aytib o'tish joiz, ular bilan o'yinlar ichida oddiy suhbatlar olib borish orqali bolalarga chet tilini amaliyotda qo'llay boshlashiga yordam berishi mumkin. Masalan, Hello, good bye, thank you, okay kabi iboralarni kundalik muloqotga kiritish orqali bolalar ularni amaliyotda qo'llay boshlaydi.

Che tilini o'rganishda bolalardagi idrokni rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Aynan Germaniyaning bir qator bog'chalarida tarbiyachilar bolalarga oddiy buyruqlar berish orqali, fikrlashlarini oshirishadi. Masalan, o'yin ichida "stand up", "sit down", "walk", "jump", "swim" buyruqlari orqali ularni turli jarayonlar haqida o'ylashga undashadi. Bu esa ularga turli mavzularda fikr yurita oladigan shaxs bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Bolalarga ma'lum vaziyatlar, masalan, do'konga borish yoki o'yinchoq sotib olish kabi rollarni o'ynashni taklif qilish orqali muloqot qilish ko'nikmasi shakllanadi.

Bolalarga chet tilini o'rgatishning afzalliklari:

- muloqot ko'nikmasi o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi
- boshqa tilni o'rgangan bolalar yangi o'rgangan so'zlarini o'z tillaridagilari bilan taqqoslash orqali miyyalarining turli xil " tizimlaridan" foydalanishadi. Bu esa ularning o'qish va yozish qobiliyatini rivojlantiradi.
- aqliy e'tibor oshadi. Bolalarning boshqa tilni organishni boshlaganliklari uchun ularning eslab qolish qobiliyati yanada kuchayadi
- ta'limi rivojlanadi (kelajakda oladigan ta'limida imkoniyatlar ko'payib, qiyinchiliklarga duch kelmaydi).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlardan faqatgina ilm olish talab etilayotgan 21- asrda imkon boricha yoshlarning bolaligidan ta'limga bo'lgan mehrini oshirish juda muhim. Shu jumladan, chet tilini o'rganishiga e'tibor qaratishimiz zarur. Bu jarayonda yuqorida keltirilgan uslublardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Har bir metodni sinab ko'rish orqali bolalar chet tilini o'rganish jarayonida aynan qaysi usullar ko'proq samara berishini aniqlay olishimiz mumkin. Boshqa tomondan olib qaraganda, yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar hamda o'qitish uslublari har bir o'qituvchi o'z amaliyotida sinab korishi zarur bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham ushbu uslublar haqida tajribalarga tayangan holda atroflicha ma'lumotlar berib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D Nu'monova, U Qo'Ziyev Badiiy matnni lingvostatistik tomondan tahlil qilish Oriental Art and Culture, 119-121, 2020

2. M Orzikulova, G Rustamova “Methods Of Improving Speaking Skills For Kids” Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 151-154, 2024
3. N Dedamirzayeva, U Kuzyiyev Teaching English to young learners through games Oriental Art and Culture, 86-88, 2020
4. N N Zubaydova How to teach vocabulary Nofilolog oliy o’quv yurtlarida chet tilini o’qitishda uchraydgan muammolar ..., 2019
5. R S Sharipovna. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1-5, 0
6. K Khashimova, U Kuziev Participation Of Languages Of Other Systems In The Formation Of The Uzbek Literary Language Збірник наукових праць ЛОГОΣ, 22-25, 2020
7. R. A Utkurovich, R. G Utkurovna. “Teaching English Language To Primary Level Pupils At School” Ijodkor O’qituvchi 3 (36), 103-105, 2024.
8. U Qo‘ziyev Tilda Soflik Masalasi Ta’limda Turkiy Xalqlar Milliy Mentalitetini Mustahkamlashning Dolzarb ..., 2022.
9. G. U Rustamova Lingvistik Pragmatikaning Birliklari. Филологические науки 11, 0.
10. Ochilova, G., & Ashurova, N. (2022). Semantic features of English narrative text. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 279-283.
11. Ashurova, N., Suleymanova, N., Amanov, A., & Aslonov, F. (2023). Conceptual Framework for the Design of Electronic Textbook for EFL Students. *Journal of Higher Education Theory & Practice*, 23(16).
12. Ashurova, N. (2019). The use of advertising texts in teaching a foreign language. In *Science and Practice: A New Level of Integration in the Modern World* (pp. 190-192).
13. Валиева, Н. А. (2020). Философия религии, ее особенности и роль в обществе. *Ученый XXI века*, (1 (60)), 15-19.
14. Valieva, N. (2017). Ms Ethiopic 4 of the Collection of the India Office: A strayed Manuscript of Gadla Lālibalā. *Aethiopica*, 20, 190-201.
15. Valieva, N. (2020). King Ṭanṭawədəm's land charter: state of the art and new perspectives.
16. Valieva, N. (2023). MS Parma, Biblioteca Palatina, Parm. 3852: a meeting point for a medieval Ethiopian king-usurper with modern pro-Italian actors. *Manuscript and Text Cultures (MTC)*, 2(1).

17. Бойназаров, И. (2012). Дастурлаш асослари бўйича мультимедиали ўргатувчи тизимни ўқув жараёнига жорий этиш. Экономика и инновационные технологии, (3), 86-90.
18. Jumayeva, M. B. (2023). Classifications of Cardinal Numbers and Ordinal Numbers in English And Uzbek. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnal, 3(2), 132-134.
19. Jumayeva, M. B. (2023). Chet Tillarini O'rganishda Ommaviy Axborot Vositalarining O'rni va Ahamiyati. Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnal, 3(5), 240-242.
20. Jumayeva, M., & Jumayeva, M. (2024, October). Challenges And Solutions In Teaching English Literature To High School Students. In International Conference On Interdisciplinary Science (Vol. 1, No. 11, pp. 176-180).
21. Jumaeva, M., & Mahmudjonov, I. (2022). Foreign Language Teaching And Its Importance In The Introduction Of Today's Youth To Social Relations. Экономика и социум, (4-2 (95)), 186-189.
22. Jumayeva, M., Quvvatova, G., & Dovurova, G. (2023). Innovative Methods And Tools In Higher Education. Science and innovation, 2(B11), 713-720.
23. Jumayeva, M., Naimov, D., & Shaymardanova, M. (2023). Methods Of Improving Speaking Skills Of Students In English Language Classes. Science and innovation, 2(B12), 368-371.